

**Ziyorat turizimi loyihalari investitsion jozibadorligini ta'minlash
masalalari**

To'qboyeva Firuza Ahmatovna
Bank moliya akademiyasi magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ziyorat turizm sanoatining investitsion muhiti, investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati, samaradorligini baholash usullari tadqiqot metodlari yordamida yoritib berilgan. Turizm sanoatini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishda yaratilayotgan shart-sharoitlar va imkoniyatlar borasida ma'lumotlar keltirilgan. Mavzu doirasida zamondosh olimlarning fikr va mulohazalari o'rganilgan va keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Turizm sanoati, investitsiya siyosati, samaradorlik, investitsion jozibadorlik, turizm sanoati, to'gridan to'g'ri investitsiya.*

Ziyorat turizmi - hozirgi kunda keng tarqalgan turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ular butun bir sayohatni o'z ichiga olib, e'tiqodli odamlar o'z dinlari bilan munosabatlarini mustahkamlash uchun boradigan maskanlardir. Ziyorat turizmi tashrif buyurish mumkin bo'lgan shahar yoki ma'lum hududdagi masjidlar va cherkovlarga yoki boshqa diniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin Ziyorat turizmi turistlarni diniy munosabat va urf-odatlariga erishish uchun to'liq yoki kuchli turtki beradigan turizm turidir.

Markaziy Osiyoda buni Ziyorat deb atashadi, bu muqaddas joylarga tashrif buyurishni anglatadi.

O'zbekiston har doim ko'plab madaniyatlar va sivilizatsiyalarning kesishish markazi bo'lib kelgan, bu yerda turli dinlar targ'ib qilingan, shuning uchun ham islom, ham buddizm va xristian dinlariga tegishli noyob yodgorliklar saqlanib

qolgan.

O'zbekiston hududida boshqa dinlar singari islom madaniyati va uning so'fiylik oqimiga oid ko'plab muqaddas joylar mavjud. Eng qimmatbaho yodgorliklar YUNESKONing Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan. Ular orasida Islom olamida Muborak Buxoro ma'nosini anglatuvchi Buxoroyi-Sharif deb nomlangan Buxoro shahri. Ko'plab bebaho yodgorliklarga ega Samarqand shahri. Amir Temurning vatani hisoblanmish Shahrisabz shahri. Albatta, bu shaharlar qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, butun hayoti davomida jiddiy o'zgarishlarga duch keldi.

Mangulik, abadiylik g'oyasi ushbu shaharlar bilan bog'liqdir. Muhammad payg'ambarning tarjimai hollarida bir voqea bor. Payg'ambar me'roj qiladi. Uning samoviy oti bor edi va u o'sha otda osmonga ko'tariladi. Avval Quddusga, so'ngra Makkaga tashrif buyuradi. Makkaga qarab, quyosh nurlari butun dunyoni yoritayotganini ko'radi. Keyin u yer yuzida faqat ikkita nuqtani ko'radi, bu nurlar pastdan yuqoriga ko'tarildi. Bu nurlar Buxoro va Samarqand edi

Markaziy Osiyoda nasroniylikning paydo bo'lishi birinchi mingyillikning boshlarida ushbu hududda missionerlik qilgan havoriylar Foma va Birinchi chaqirilgan Andrey ismlari bilan bog'liq.

O'shandan beri dunyodagi eng muhim ikkita din - Islom va Nasroniylik dinlari birga tinch yashab kelmoqda. O'zbekistonda 10 dan ortiq muqaddas va e'zozlangan nasroniy va musulmon joylari, ziyoratgohlar mavjud.

Hozirgi zamongacha, O'zbekiston hududida nasroniylar ham, musulmonlar ham hurmat qiladigan "Iova buloqlari" mavjud bo'lib, ularning eng mashhuri Buxoroda joylashgan.

To'g'ridan-to'g'ri, O'zbekistondagi pravoslav cherkovi O'rta Osiyoda rus pravoslav cherkovining paydo bo'lishi bilan, bu mintaqaning asosiy qismi Rossiya imperiyasiga qo'shilganidan keyin va Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi (1867) bilan bir qatorda shakllana boshlangan.

Bo'stonliq tumani tog'li hududlarining turistik salohiyatini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish

tizimini takomillashtirish va chekka hududlarda qo'shimcha ish o'rinlari, zamonaviy xalqaro umumavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa turistik ahamiyatli obyektlar barpo etish, mamlakatning tog'li hududlaridagi zamonaviy muhandislik infratuzilmasini qurish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bo'stonliq tumanida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish orqali turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-avgustdagi PF-6053-son Farmoni ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Fransiyaning Xususiy sektorga ko'mak va tadqiqot Fondi (FASEP) yordami bilan "Geode", "Manie Lives", "Egis", "Patriarche", "Epode" fransuz kompaniyalarining konsorsiumi (keyingi o'rinlarda — Konsorsium) tomonidan Bo'stonliq tumanida "Byeldirsoy-Chimyon-Nanay" xalqaro umumavsumiy kurortning (keyingi o'riplarda — XUK) master-rejasi ishlab chiqilganligi;

ushbu master-rejada 500 million AQSh dollarigacha bo'lgan investitsiyalarni, shu jumladan, Fransiya Respublikasi Hukumati moliya institutlarining turizm, yo'l-transport va kommunal infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'larini jalb qilish nazarda tutilganligi;

XUKni tashkil qilish doirasida loyihalarni texnik nazorat qilish, osma dor yo'llari, chang'i trassalari, attraksionlarni batafsil rejalashtirish va joylashtirish, shuningdek, yer uchastkalarini, shu jumladan, tender hujjatlari, turizm infratuzilmasi obyektlarini (mehmonxonalar, restoranlar, savdo shaxobchalari va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlari) qurish uchun maxsus rejim qoidalariga amal qilishni nazarda tutgan holda yer uchastkalarini lotlarga bo'lish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va Konsorsium o'rtasida maslahat xizmatlari bitimi imzolanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.¹

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor

¹PF 559-сон 17.09.2020. Tog'li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida

berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo‘nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta‘mirlashga jiddiy e‘tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd musulmon dunyosini o‘ziga tortmoqda. Hozirgi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan ekanmiz avvalo mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi - Sharqiy Osiyo va G‘arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida jozibador infratuzilmalar ishlab chiqishimiz kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, transport imkoniyatlarni o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag‘ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o‘nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Islom dunyosida katta xizmat qilagn, avliyo darajasiga ko‘tarilgan siymolarimiz abadiy qo‘nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya‘ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obektlariga aylantirish mumkin. Shu bilan birga, respublika hududidagi yirik ziyorat obyektlariga olib boruvchi yo‘nalishli avtotransport qatnovi tizimini yo‘lga qo‘yish, hududdagi aholini boshqa hududga tashkillashtirilgan sayyohat qilishlari uchun transport qatnovlarini yo‘lga quyilishi ta‘minlanadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda joylashgan islom madaniyati va tarixi bilan bog‘liq madaniy meros obektlari Islom hamkorlik tashkilotining Islom madaniy merosi ro‘yxatiga kiritish choralari amalga oshiriladi.

Ichki va tashqi sayyohlikni keng yo‘lga qo‘yish, respublikada turizm sohasini modernizatsiyalash, sohani barqaror rivojlantirish, turizm markazlari hisoblangan hududlarda turistik, maishiy va aloqa-axborot infratuzilmalarini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy mehmonlarga xalqaro standartlarga muvofiq xizmatlar ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, bu boradagi belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, yurtimizda turizm sohasini rivojlantirish birinchi navbatda dunyo hamjamiyatida O'zbekistonning mavqeini mustahkamlaydi, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar va ishonchli hamkorlik eshiklarini ochadi, mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqarorligiga, aholi daromadlari, bandligi va tadbirkorligi kabi ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga omil bo'lib, xizmatlar sohasining yana-da takomillashuviga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o'zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln. buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. PF 559-сон 17.09.2020. Tog'li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
2. Egamnazarov Kh., Bakhromov A., Nurfayzieva M., & Oppokkhonov N. (2023). Tourism Potential Of The Republic Of Karakalpakstan: An Exploration Of Cultural Heritage And Natural Beauty // Экономика и социум, (7 (110)), 104–110.
3. Egamnazarov, K. (2023). The Role of the Cities of the Great Silk Road of Uzbekistan in the Tourism of Uzbekistan // European Journal of Life Safety and Stability (2660–9630).
4. Khalilullayevna, D. M. (2023). Current Problems in Improving the Practice of Financing Investments in the Field of Tourism // European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 3(6), 147–152.